



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadiyeva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
<i>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna</i>	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
<i>Alikulov Samar Abdurashidovich</i>	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
<i>Karimova Shaxnoza Uktamovna</i>	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
<i>Ruziyeva Barno Yadgarovna</i>	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
<i>Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li</i>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
<i>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</i>	
MAJBURIY IJRO HARAKATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
<i>Matmuratova Nasiba Azatovna</i>	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
<i>Pulatov Abdulla</i>	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
<i>Nazarov Aziz Avazovich</i>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
<i>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</i>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
<i>Omonova Nafisa Qahramon qizi</i>	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
<i>Ahrorova Asila</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
<i>Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</i>	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI	212
<i>Tursunov Rasul Tairovich</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	218
<i>Эргашева Феруза Насруллаевна</i>	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN	226
<i>Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna</i>	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
<i>Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI	238
<i>Saodat Sadriddinova</i>	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	243
<i>Saida Xabibullayeva</i>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	



QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI

Nurullayeva Raushan Koptleuovna

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktranti
08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktrori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida diversifikatsiyaning mazmuni, iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tahlil markazida ishlab chiqarish tarkibini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga o'tish, qayta ishlash zanjirlarini chuqurlashtirish, daromad manbalarini ko'paytirish, bozor xatarlarini kamaytirish hamda qishloq hududlarida bandlikni mustahkamlash masalalari turadi. Diversifikatsiya faqat ekin turlarini ko'paytirish bilan cheklanmay, balki chorvachilik, bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, qayta ishlash, logistika, saqlash, servis xizmatlari va eksport yo'nalishlarini uyg'un rivojlantirishni ham qamrab olishi asoslanadi. Maqolada davlat strategik hujjatlari, World Bank, Food and Agriculture Organization hamda xalqaro agrar-iqtisodiy tadqiqotlar asosida diversifikatsiyaning resurslardan samarali foydalanish, daromad barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, hududiy rivojlanish va ekologik muvozanatga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, diversifikatsiya, agrar iqtisodiyot, qo'shilgan qiymat, qayta ishlash, oziq-ovqat xavfsizligi, eksport, bandlik, risk, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the content, economic essence, and practical significance of diversification in agricultural economics. The study focuses on expanding the production structure, transitioning to high value-added products, deepening processing chains, increasing income sources, reducing market risks, and strengthening employment in rural areas. Diversification is considered not only as an increase in crop types but also as the integrated development of livestock farming, horticulture, greenhouse production, processing, logistics, storage, service activities, and export directions. Based on data from the World Bank, Food and Agriculture Organization and international agri-economic studies, the impact of diversification on efficient resource use, income stability, food security, regional development, and ecological balance is examined.

Key words: agriculture, diversification, agricultural economics, value added, processing, food security, export, employment, risk, sustainable development.

Аннотация. В статье анализируются содержание, экономическая сущность и практическое значение диверсификации в аграрной экономике. В центре анализа находятся вопросы расширения структуры производства, перехода к продукции с высокой добавленной стоимостью, углубления перерабатывающих цепочек, увеличения источников дохода, снижения рыночных рисков и укрепления занятости в сельских территориях. Диверсификация рассматривается не только как увеличение видов сельскохозяйственных культур, но и как комплексное развитие животноводства, садоводства, тепличного хозяйства, переработки, логистики, хранения, сервисных услуг и экспортных направлений. На основе данных World Bank, Food and Agriculture Organization и международных аграрно-экономических исследований раскрывается влияние диверсификации на эффективное использование ресурсов, устойчивость доходов, продовольственную безопасность, региональное развитие и экологическое равновесие.

Ключевые слова: сельское хозяйство, диверсификация, аграрная экономика, добавленная стоимость, переработка, продовольственная безопасность, экспорт, занятость, риск, устойчивое развитие.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti tarixan yer, suv, mehnat va biologik resurslarga tayangan tarmoq sifatida shakllangan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda uning samaradorligi endi faqat yalpi hosil yoki ishlab chiqarish hajmi bilan o'lchanmaydi. Baholash mezoni tarkibiy moslashuvchanlik, bozor signallariga tez javob qaytarish qobiliyati, qiymat zanjirlarida ishtirok darajasi, resurs tejamkorligi va daromad barqarorligi bilan belgilanmoqda.



Ana shunday o'zgarishlar fonida diversifikatsiya agrar iqtisodiyotning yordamchi emas, balki strategik kategoriyasiga aylanadi. Agrar diversifikatsiya ishlab chiqarishni bir mahsulot yoki bir necha tor yo'nalish doirasida ushlab turishdan voz kechib, talab, renta, iqlim, logistika va qayta ishlash imkoniyatlariga mos tarkibiy yangilanishni anglatadi [3][5][7]. World Bank qishloq xo'jaligini taraqqiyot, kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy transformatsiyaning tayanch omillaridan biri sifatida baholagan bo'lsa, Prabhu Pingali va Mark Rosegrant diversifikatsiyani bozorlashtirish jarayonining ichki tarkibiy natijasi sifatida talqin qiladi [3][7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sharoitida diversifikatsiya masalasi agrar islohotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi tarmoqni oziq-ovqat xavfsizligi, bozor institutlari, qiymat zanjirlari, resurs tejamkorligi va eksportboplik tamoyillari asosida yangilashni ko'zda tutadi [1]. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, hududlarni jadal rivojlantirish va iqtisodiy transformatsiyani jadallashtirish alohida vazifa sifatida belgilangan [2]. Demak, diversifikatsiya qishloq xo'jaligida faqat ekin almashinuvi yoki yangi turdagi mahsulot yetishtirish masalasi emas; u yer munosabatlari, investitsiya oqimlari, qayta ishlash sanoati, transport-logistika, kredit, sug'urta, eksport standartlari hamda ilmiy-konsalting xizmatlari bilan uzviy bog'liq murakkab iqtisodiy tizimdir.

Ilmiy adabiyotlarda diversifikatsiyaning mohiyati ikki asosiy yo'nalishda talqin qilinadi. Birinchi yo'nalish ishlab chiqarish va mahsulot tarkibini kengaytirish bilan bog'liq bo'lib, unda ekinlar, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik va qayta ishlashning bir-birini to'ldiruvchi shakllari ko'zda tutiladi [5][7]. Ikkinchi yo'nalish daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq servis, saqlash, saralash, qadoqlash, transport, kichik qayta ishlash, agroservis va boshqa faoliyatlar orqali qishloq aholisi daromadining tuzilmasi murakkablashadi [6]. Alberto Carletto va Katia Covarrubias ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq uy xo'jaliklari uchun daromad portfelini ko'paytirish odatiy holat bo'lib, bir nechta manbaga tayangan xo'jalik modeli barqarorlik nuqtai nazaridan afzal sanaladi [6]. Mazkur nazariy asos maqola tahlilining metodologik poydevorini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Diversifikatsiyaning agrar iqtisodiyotdagi birinchi va eng muhim vazifasi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Monotarmoq modelida yer, suv, mehnat va texnika mavsumiy yoki tor texnologik siklga bog'lanib qoladi. Natijada aktivlarning bir qismi yil davomida to'liq ishlatilmaydi, mehnat bandligi notekis shakllanadi, hosil va daromad bir yoki ikkita bozordagi narx tebranishiga qaram bo'lib qoladi. Diversifikatsiyalashgan xo'jalikda esa resurslar turli faoliyatlar o'rtasida qayta taqsimlanadi: dala ekinlaridan bo'shagan mehnat bog'dorchilik, issiqxona, chorvachilik yoki qayta ishlashga yo'naltiriladi; hosildan qolgan organik resurslar yem-xashak yoki o'g'it sifatida foydalaniladi; suv, texnika va omborlardan yilning turli davrlarida ko'proq unum bilan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Pramod Joshi va hammualliflar agrar diversifikatsiya narx siyosati, infratuzilma, urbanizatsiya va texnologik yangilanish bilan chambarchas bog'liq ekanini, yuqori qiymatli mahsulotlarga o'tish kichik ishlab chiqaruvchilar daromadini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi [5]. Prabhu Pingali va Mark Rosegrant ham mahsulot tuzilmasidagi o'zgarishlar bozor kuchlari bilan belgilanishini, hukumatning oqilona siyosati bunday transformatsiyani tezlashtirishini ta'kidlaydi [7].

Ikkinchi jihat daromad barqarorligi va xatarlarni boshqarish bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti tabiat omillari, suv taqchilligi, kasalliklar, narxlarning keskin tebranishi va logistika uzilishlariga sezgir bo'ladi. Monomahsulot tizimida bitta salbiy omil butun xo'jalik daromadini izdan chiqaradi. Diversifikatsiya esa iqtisodiy portfel mantig'i asosida ishlaydi: bir yo'nalishdagi yo'qotish boshqa yo'nalishdagi tushum bilan qoplanishi mumkin. Food and Agriculture Organization materiallarida ekinlar va faoliyat turlarini ko'paytirish uy xo'jaliklariga ob-havo yoki bozor zarbalarini kengroq mahsulot to'plami orqali yumshatish imkonini berishi qayd etiladi [4]. Qishloq daromadining ko'p manbali tuzilishi bo'yicha Food and Agriculture Organization–World Bank hamkorligidagi tadqiqotlar ham diversifikatsiya "istisno emas, norma" ekanini ko'rsatadi [6]. Shu sababli diversifikatsiya faqat iqtisodiy o'sish vositasi emas, balki risklarni pasaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida ham qaralishi lozim [4][6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozor barqarorligi. Agrar ishlab chiqarish tor mahsulot tuzilmasiga suyanib qolgan sharoitda ichki iste'molning sifat va assortiment talablari qondirilmaydi, importga qaramlik kuchayadi, ta'minot zanjirlari qisqa bo'g'inlarda uziladi. Diversifikatsiya meva-sabzavot, dukkakli ekinlar, yem-xashak, chorvachilik va qayta ishlangan oziq-ovqat segmentlarini parallel rivojlantirish orqali bozorni muvozanatlashtiradi.



O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot sifati, sanitariya va fitosanitariya tizimini modernizatsiya qilish, tashqi bozorlarga mos standartlarni joriy etish ustuvor vazifalar qatorida qayd etilgan [1]. Taraqqiyot strategiyasi esa chuqur qayta ishlash va hududiy rivojlanishni iqtisodiy modernizatsiyaning tarkibiy unsuri sifatida ko'radi [2]. Bunday yondashuv ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi uzilishlarni qisqartiradi, mavsumiy keskinlikni yumshatadi, import o'rnini bosuvchi segmentlarni yaratadi va eksport salohiyatini kengaytiradi [1][2][3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida diversifikatsiya tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim shakllaridan biridir. Uning mohiyati bir mahsulotdan voz kechib ko'p mahsulotga o'tish bilangina cheklanmaydi; masala yer, suv, mehnat, kapital va bilim resurslarini yuqori daromad, yuqori qo'shilgan qiymat va nisbatan past risk beradigan faoliyatlar o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Tahlil shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, narx va iqlim xatarlarini yumshatadi, bandlikni kengaytiradi, qayta ishlashni rag'batlantiradi, ichki bozorni muvozanatlashtiradi va eksport tarkibini murakkablashtiradi [3][4][5][6][7]. Shu bois agrar siyosatda diversifikatsiyaga faqat agrotexnik yoki hosildorlik masalasi sifatida emas, balki iqtisodiy barqarorlik va hududiy rivojlanish strategiyasi sifatida yondashish zarur.

O'zbekiston sharoitida diversifikatsiyaning amaliy samarasi davlat strategiyalari, bozor institutlari, qayta ishlash infratuzilmasi, standartlashtirish, eksport logistika tizimi, kredit-sug'urta mexanizmlari hamda ilmiy maslahat xizmatlari uyg'unlashgandagina kuchayadi [1][2]. Kelgusida agrar iqtisodiyotning raqobatbardosh modeli hududiy imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, yuqori qiymatli segmentlarni kengaytirish, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish bo'g'inlarini qishloq hududlariga yaqinlashtirish hamda daromad manbalarini ko'paytirish orqali shakllanadi. Demak, diversifikatsiya qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining chekka masalasi emas; u tarmoqning rentabelligi, ijtimoiy barqarorligi va uzoq muddatli modernizatsiyasini belgilovchi tayanch tamoyildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. World Bank. World Development Report 2008: Agriculture for Development. — Washington, DC: The World Bank, 2008.
4. Food and Agriculture Organization. Save and Grow: A Policymaker's Guide to the Sustainable Intensification of Smallholder Crop Production. — Rome: FAO, 2011.
5. Joshi, P. K., Gulati, A., BIRTHAL, P. S., Tewari, L. Agriculture Diversification in South Asia: Patterns, Determinants, and Policy Implications. — Washington, DC: International Food Policy Research Institute, 2003. — 57 p.
6. Carletto, G., Covarrubias, K. Rural Income Generating Activities in Developing Countries: Re-assessing the Evidence // Electronic Journal of Agricultural and Development Economics. — 2007. — Vol. 4, No. 1. — P. 146–193.
7. Pingali, P. L., Rosegrant, M. W. Agricultural Commercialization and Diversification: Processes and Policies // Food Policy. — 1995. — Vol. 20, No. 3. — P. 171–185. — DOI: 10.1016/0306-9192(95)00012-4.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>